



Toshkent davlat
sharqshunoslik universiteti

XXI ASR: FAN VA TA'LIM MASALALARI

ilmiy elektron jurnali

ISSN: 2181-9874

EDUCATION

2025

AHOLINI ISH BILAN BANDLIGI BO‘YICHA KLASSIK VA NEOKLASSIK NAZARIYALAR

Feruza Zakirjanova Yuldashevna

Katta o‘qituvchi

“Iqtisodiyot va menejment” kafedrasи
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Annotatsiya. Maqolada aholi ish bilan bandligi, bandlik munosabatlari bo‘yicha mumtoz iqtisodiy ta’limotdagi nazariyalar, fikr va mulohazalar ko‘rsatilgan. Ushbu maqolada ish bilan bandlikning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, uning zamonaviy jamiyatdagi o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Aholini ish bilan ta’minalash – bu faqat iqtisodiy jarayon emas, balki ijtimoiy munosabatlar tizimi bo‘lib, u insonning jamiyatdagi faol ishtirokini ta’minalaydi. Maqolada ish bilan bandlikni ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida baholanib, uni rivojlantirishning nazariy asoslari, davlat siyosati bilan bog‘liq yo‘nalishlarini tahlil qilinadi. Maqolada ish bilan ta’minalish konsepsiyasi jamiyatning muayyan bosqichdagi rivojlanish darajasi bilan chambarchas bog‘liqligi qayd etiladi. Shuningdek, ish bilan bandlik muammolarining faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy jihatdan yondashilishini ta’minalash zarurligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: Aholining ish bilan bandligi, iqtisodiy o‘sish, bozor, neoklassik nazariya, narxlar va ish haqi, talab va taklif, bozor.

CLASSICAL AND NEOCLASSICAL LABOUR THEORIES LABOUR INVOLVEMENT

Feruza Zakirjanova Yuldashevna,

Senior Lecturer of the

Department of “Economics and Management”,
Tashkent State University of Oriental Studies

Annotation: The article presents theories, ideas, and considerations of classical economic doctrines regarding employment and labour relations. The article explores the socio-economic essence of employment, its role and importance in modern society.

Employment is not just an economic process, but a system of social relations that ensures the active participation of a person in the life of society. The article assesses employment as a socio-economic phenomenon, analyses the theoretical foundations of its development and directions of state policy. The article notes that the concept of employment is closely related to the level of development of society at a certain stage. This also substantiates the need to ensure that employment problems are considered not only from the economic, but also from the social point of view.

Keywords: Employment, economic growth, market, neoclassical theory, prices and wages, supply and demand, bazar.

КЛАССИЧЕСКИЕ И НЕОКЛАССИЧЕСКИЕ ТЕОРИИ ТРУДА ТРУДОВОЕ УЧАСТИЕ

Феруза Закиржанова Юлдашевна

Старший преподаватель кафедры

“Экономика и менеджмент”

Ташкентский государственный университет востоковедения

Аннотация: В статье представлены теории, идеи и соображения классической экономической доктрины о занятости населения и трудовых отношениях. В статье исследуется социально-экономическая сущность занятости, ее роль и значение в современном обществе. Занятость — это не просто экономический процесс, а система социальных отношений, обеспечивающая активное участие человека в жизни общества. В статье дается оценка занятости как социально-экономического явления, анализируются теоретические основы ее развития и направления государственной политики. В статье отмечается, что понятие занятости тесно связано с уровнем развития общества на определенном этапе. Это также обосновывает необходимость обеспечения того, чтобы проблемы занятости рассматривались не только с экономической, но и с социальной точки зрения.

Ключевые слова: Занятость, экономический рост, рынок, неоклассическая теория, цены и заработная плата, спрос и предложение, рынок.

KIRISH

Aholini ish bilan ta’minlash har qanday jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida hal qiluvchi o‘rin tutadi. Bu jarayon nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta’minlaydi, balki inson mehnatga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, uning ijtimoiy mavqeini belgilash va jamiyatdagi faol ishtirokini ta’minlash vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ish bilan bandlik – bu faqatgina ish joyining mavjudligi emas, balki insonlarning ijtimoiy foydali mehnatga jalb etilishidagi o‘zaro iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar tizimidir. U jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi va iqtisodiy modeliga bog‘liq holda shakllanadi.

So‘nggi yillarda mehnat bozoridagi o‘zgarishlar, iqtisodiyotning sifat jihatdan yangilanishi, texnologik rivojlanish va ijtimoiy ehtiyojlarning o‘zgarib borishi ish bilan bandlik konsepsiyasini ham qayta ko‘rib chiqishni taqozo qilmoqda.

Aholini ish bilan ta’minlash inson ijtimoiy rivojlanishining eng muhim jihatlaridan biri-uning mehnat sohasi va u bilan bog‘liq, bo‘lgan ehtiyojlarni qondirish yo‘llarini ochib beradi.

Ish bilan bandlik odamlar ish joylari qayerdaligidan qat’i nazar, ijtimoiy foydali mehnatda qatnashish yuzasidan o‘zaro kirishadigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardir.

Ish bilan bandlik munosabatlari, mehnatga layoqatli odamlarning qanchasi va qay darajada ijtimoiy foydali mehnatda qatnashishini ko‘rsatadi. Biroq ish bilan bandlik toifasi faqat iktisodiy komponent bilan cheklanmaydi.

Ish bilan bandlik, avvalo, ijtimoiy munosabatlardir, ya’ni odamlarning jamiyat ichidagi munosabatlaridir, shu bois qandaydir azaliy, bevosita yuzaga kelgan hodisa sifatidagi ijtimoiylik ularning asosiy hususiyati hisoblanadi.

Ish bilan bandlikni ijtimoiy-iqtisodiy xodisa sifatida quyidagicha ta’riflash mumkin: ish bilan bandlik – fuqarolarning qonun hujjalariiga zid kelmaydigan o‘z mavqeini va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish bilan bog‘lik bo‘lgan, ularga ish haqi yoki mehnat daromadi keltiradigan faoliyatdir.

Iqtisodiyotning sifat jihatidan oldingisidan farq qiluvchi har bir rivojlanish bosqichi uchun ish bilan ta’minlashning muayyan modeli (konsepsiysi) mos keladi, chunki uning asosiy hususiyatlari jamiyat faoliyatining muhim jarayonlarini ochib beradi.

Tajriba shuni ko‘rsatadiki, jamiyat muammolari ichida insonning mavqeini, talab-ehtiyojlarini hisobga olmasdan hal qilishga urinish omadsizlikka mahkum etadi. Shuning uchun avvallari olimlar ish bilan bandlik muammolarini ko‘rib chiqayotganlarida asosan, uning iqtisodiy jihatlariga e’tibor bergan bo‘lsalar, keyingi paytda ish bilan bandlikning ijtimoiy jihatlari to‘g‘risida tobora ko‘proq gapirilayotganligi bejiz emas.

Aholining ish bilan bandlik konsepsiysi - jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muayyan bosqichidagi ish bilan ta’minlanishning xususiyatini ochib beradigan qarashlar, tasavvurlar tizimidir.

Bunday nazariy tushunchalar markazida uni rivojlantirishning ijtimoiy bozor tipidagi davlat uchun xos bo‘lgan obyektiv jarayonlarini hisobga oluvchi ish bilan ta’minlanishning shakllanishi qo‘yiladi. Bu o‘z navbatida muayyan davr mobaynidagi qo‘yilgan maqsadlarga erishishning real imkoniyatlari bilan cheklanmaydi.

ADABIYOTLAR SHARI

Klassik mактабning yirik namoyandalaridan Adam Smit va uning izdoshi David Rekardolar o‘z ta‘limotlarida bozor tizimi resurslaridan, shu jumladan, ishchi kuchi resurslaridan to‘liq foydalanishni ta’minlashga qodir, deb hisoblaydilar.

Bu borada fransuz olimi Jan Batist Sey ham o‘z qarashlari bilan bir qator masalalarda klassiklar tutgay yulni to‘g‘ri deb baholaydi.

Klassik iqtisodchilar qo‘shimcha ravishda o‘z xulosalarini asoslab berganlar, bu xulosa - to‘liq, ish bilan bandlik bozor xo‘jaligi uchun norma, yana bir dalil, narxlar va ish haqi nisbatining elastikligidir deb hisoblaganlar.

XIX asrning oxirlarida klassiklarning izdoshlari ularning qarashlarini rivojlantirib, iqtisodiy nazariyaning neoklassik yo‘nalishlarini ifodalab berdilar. Bu yunalishlarning asoschisi Kembrij universitetining professori Alfred Marshall (1842—1924) bo‘ldi. Uning bozor narxi to‘g‘risidagi, tadbirkorlik, iste‘molchilik xulq-atvori va boshqalar to‘g‘risidagi yangi nazariy qoidalaridan hozirgi vaqtida foydalaniб kelinmokda.¹

A.Marshall talab va taklif tartibga solish ish bilan bandlikni ta’minalash uchun muhim axamiyatga ega ekanligini ta’kidlagan. Shu bilan birga, u butun talabni pirovard tartibga soluvchi narsa iste‘molchilar talabi bo‘lib, uni tartibga solish bozor tomonidan o‘z-o‘zidan amalga oshiriladi, deb hisoblagan.

Neoklassik nazariyaning boshqa vakillari kabi A. Marshall ham yuqori ish haqi muqarrar ravishda ish bilan bandlikni kamaytiradi va ishsizlikni oshiradi, deb hisoblagan. Buni asoslash uchun u «eng kam unum dorlik nazariyasi» dan foydalangan. Uning asari paydo bulgan vaktda ishsizlik darajasi unchalik katta bo‘lmagan va ish bilan bandlikning beqarorligi u qadar keskin muammo hisoblanmagan.

«Ish bilan bandlikning beqarorligi, deb yozgan edi Marshall, katta musibat bo‘lib, haqli ravishda jamoatchilikning e‘tiborini jalb qiladi. Biroq u sabablar yig‘indisiga ko‘ra, xaqiqatda qandayligidan ancha katga tuyuladi... Ish bilan bandlikning beqarorligi umuman ortib bormokda, deb hisoblash uchun etarli asoslar yo‘q». U bozor iqtisodiyotini o‘z-o‘zidan tartibga keladigan iqtisodiyot deb hisoblab, ish bilan bandlikning davlat tomonidan tartibga solinishiga zarurat yo‘q, deb bilgan.

Artur Pigu (1877— 1955) Marshallning izdoshi va shogirdi bo‘lib, uning ish bilan bandlik sohasidagi asosiy asari — «Ishsizlik nazariyasi» 1933-yilda chiqqan bo‘lib, bu asarda ish bilan bandlik to‘g‘risidagi klassik nazariyaning asosiy qoidalari ancha to‘liq bayon qilingan. Piguning fikricha, ishsizlikning sababi ish haqining yuqori

¹ Абдурахмонов Қ.Х. Мехнат иқтисодиёти (назария ва амалиёт). Олий ўкув юртлари учун дарслик. Т: “Mehnat”, 2004 -672 b.

darajasidir, ish haqining qisqarishi esa ish bilan bandlikni oshiradi, chunki ishlab chiqarish harajatlarini kamaytiradi va qo’shimcha ishchilarini yollash uchun imkoniyat yaratiladi.

Ishlab chiqarish xarajatlarining kamayishi, uning fikricha, tovarlar narxining umumiyligi ravishda pasayishiga va ish haqi hisobiga tirikchilik o’tkazmaydigan aholi guruhlarining xarid qilish qobiliyatini oshirishga olib keladi, bu esa qo’shimcha talabni vujudga keltiradi, mazkur talab ishlab chiqarish va ish bilan bandlikning kengayishini rag’batlantiradi.

Ish bilan bandlik hajmini belgilovchi boshqa omil, Piguning fikricha, mehnatga bo’lgan haqiqiy talab funksiyasidir. Pirovardida u quyidagicha xulosaga keladi: «Yollanma xodimlar orasida mutlaq erkin raqobat mavjud bo’lganda va mutlaqo harakatchan mehnat mavjud bo’lganda, aloqa xususiyati (xodimlar talab qiladigan real ish haqi stavkalari bilan mehnatga bo’lgan talab o’rtasidagi aloqa) juda oddiy bo’ladi. Hamma ish bilan band bo’lishi uchun ish haqi stavkalari bilan talab o’rtasida ana shunday nisbat o’rnatalishiga kuchli intilish doimiy ravishda amal qiladi». Pigu «ixtiyoriy ishsizlik nazariyasini» tarafdori bo’lgan, unga muvofiq ishchilarining o’zlarini ixtiyoriy ravishda o’zlarini ishsizlikka mahkum etadilar, talab va taklif natijasida bozorda vujudga keladigan «normal» ish xaqi uchun ishlashga rozi bulmaydilar.²

Jon Meynard Keyns (1883—1946) atoqli nazariyotchi va boshqariladigan kapitalizm va ish bilan bandlik iktisodiy nazariyasining asoschisidir. U haqli ravishda XX asrning atoqli iqtisodchisi hisoblanadi.

Uning asosiy asari «Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiyligi nazariyasini» bo’lib, 1936-yilda bosilib chiqgan. Ushbu asarda ish bilan bandlik muammolari tahlil qilingan bo’lib, unda, tahlilning pirovarda maqsadi - ish bilan bandlik darajasi nima bilan belgilanishi qayd etilgan. Kitob «buyuk turg’unlik» yillarida yaratilgan bo’lib, bu

² Абдурахмонов Қ.Х. Мехнат иқтисодиёти (назария ва амалиёт). Олий ўкув юртлари учун дарслик. Т: “Mehnat”, 2004 -672 b.

vaqtida ishsizlik misli ko‘rilmagan darajaga etib, dunyodagi asosiy kapitalistik mamlakatlarni qamrab olgan edi. 1933-yilga kelib AQSHda qayd etilgan ishsizlik darajasi 25 % ga, Angliyada 22 % ga yetgan bo‘lib bunday holatni klassik nazariya qoidalari bilan tushuntirib bo‘lmashdi. «Biz yashab turgan jamiyatning eng katta illatlari, deb yozgan edi Keyns, uning to‘liq ish bilan band bo‘lishni ta‘minlashga qodir emasligi, shuningdek, uning boylik va daromadlarni ixtiyoriy ravishda hamda adolatsizlik bilan taqsimlashidir».³

Keyns iqtisodiyotchilari orasida birinchi bo‘lib, noiloj ishsizlik to‘g‘risidagi tasavvurni bat afsil ishlab chiqdi, u bunday ishsizlik yalpi samarali talab etishmasligi oqibatida kelib chiqadi, deb xulosa qildi.

Samarali talab to‘g‘risidagi tasavvur Keyns nazariyasidagi eng muhim joydir. Agar yalpi talab tadbirkor kutgan darajadan pastroqgga tushsa va shu sababli ishlab chiqarish xarajatlarini qoplashning imkonini bo‘lmasa, deb ta‘kidlagan edi Keyns, ishlab chiqarish qisqarishi ro‘y beradi, bu esa ishsizlikka olib keladi.

Aksincha, yalpi talab kutilgan darajadan yuqoriqoq, bo‘lsa, ishlab chiqarish turki bo‘ladi. Muvozanat o‘rnatalishiga olib keladigan yalpi talab darajasi samarali hisoblanadi. Noiloj ishsizlik va to‘lik, ish bilan bandlik keynscha tushunilishining korreliyatori bo‘ladi.

Keynsning fikricha, to‘liq, ish bilan bandlik — noiloj ishsizlik nolga teng bo‘lgan holatini aks ettiradi. Bunday holatga, ish bilan band odamlar soni samarali talabning qo‘srimcha kengayishiga javoban xech o‘zgarmaydigan bo‘lganida erishiladi.

Shunday qilib, Keynsning bosh g‘oyasi yalpi talabning (umumiylar xarid qobiliyatining) faollashtirilib rag‘batlantirishi orqali tovar va xizmatlar ishlab chiqarilishi va taklifga ta’sir etish, ish bilan bandlik darajasini oshirish fikridan iboratdir. Keyns nazariyasining ahamiyati iqtisodiy rivojlanish tahliliga an‘anaviy

³ Антология экономической классики. Мальтус М., Кейнс Д., Ларин Ю. М. 1993, 424-6

www.sharqjurnali.uz

DOI: 10.5281/zenodo.15411926

yondashishlarni shunchaki ko‘rib chiqanlikda emas, balki umumlashma kategoriylar sifatida real iktisodiy ko‘rsatkichlar funksional bog‘liqligi va o‘zaro aloqalari tadqiq, qilinishining umumnazariy negizlarini yaratish, ularning iqtisodiy rivojlanishining borishi va tendensiyalariga ta‘sirini ko‘rsatib berishdir.⁴

Keyns nazariyasining asosini samarali talab tamoyili tashkil etadi. Uning hisoblashicha, korxona egalari talab bildiradigan N mehnat xarajatlari hajmi jamiyatning iste‘molga qiladigan xarajatlariiga (D1) va yangi investisiyalarga qilinadigan xarajatlarga (D2) bog‘liq bo‘ladi.

D1+D2-samarali talab bilan bandlik esa samarali talabning funksiyasi hisoblanadi. Uning nazarida, bozorga asoslangan kapitalistik takror ishlab chikarishning muhim muammosi bozorning hajmi, uning tovarlar taklifi kupayishiga muvofik kengayib borish imkoniyatidir.⁵

Klassik iqgisodchilar Sey va Rikardo taklif talabni vujudga keltiradi, degan fikrni inkor qilib, ularning bir-biriga mos kelmasligini asoslantirildi, samarali talabning umumiyligi miqdorini ko‘paytirish zarurligini ta’kidlandi. Faqat samarali talabgina ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirishga va millat farovonligini oshirishga olib keladi.

Keyns ta’kidlashicha samarali talabning yetishmasligi ishlab chiqarish quvvatlari ish bilan to‘liq ta’min etilmasligiga, ishlab chiqarishning o‘sish sur‘atlari pasayib, tanglik holatlariga va ishsizlikka olib keladi. Davlat talabning umumiyligi hajmiga ta’sir ko‘rsatishi lozim. U talab xajmini kengaytirish bilan ishsizlikning kamayishiga yordam beradi.

Keyns o‘z tahlillari natijasida kelgan xulosa: unga zamondosh bo‘lgan jamiyat, ya’ni bozorga asoslangan kapitalistik xo‘jalik iqtisodiyotidagi muvozanatni o‘z-o‘zidan

⁴ Абдурахмонов Қ.Х. Мехнат иқтисодиёти (назария ва амалиёт). Олий ўқув юртлари учун дарслик. Т: “Mehnat”, 2004 -672 b.

⁵ Абдурахмонов Қ.Х. Мехнат иқтисодиёти (назария ва амалиёт). Олий ўқув юртлари учун дарслик. Т: “Mehnat”, 2004 -672 b.

tiklash mexanizmiga ega emas. Shunga asoslanib, u davlat iqtisodiyotni tartibga solishi, avvalo, samarali talabning lozim darajadagi hajmini ta’minlashi zarur, degan xulosaga keladi.

Keyns iqtisodiy fanda birinchi bo‘lib kapitalistik bozor xo‘jaligini tartibga solish masalasini qo‘ydi, uning zarurligini va asosiy yunalishlarini belgilab berdi, ular bugungi kunda xam o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Dunyoda eng mashxur iqtisodchi ayol - D. Robinson o‘zining «Nomukammal rakobat iqtisodiyoti» (1933) asarida bunday raqobatni ishlab chiqarish va ish bilan bandlik inkdrozining asosiy sababchisi deb hisobladi, chunki u mukammal raqobat davriga nisbatan ko‘proq, foyda olish imkonini beradi, bu hol iqtisodiyotning turg‘unligiga va ishsizlikning o‘sishiga olib keladi. Shuning uchun u monopol korxonalarini nazorat qilish va ulardagi mahsulot narxlarini tartibga solishni taklif qildi.

Ikkinchi jahon urushi arafasida va shundan keyin oradan 25 yil o‘tgach, tartibga solinadigan kapitalizm to‘g‘risidagi Keyns nazariyasi dunyoda hukmron bo‘lib qoldi. U kapitalistik mamlakatlar iqtisodiyotning yanada barqarorroq, rivojlanishiga, ular aholisi turmush darajasining ortishi va ishsizlikning qisqartirishiga, ish bilan bandlikning ko‘payishiga, ijtimoiy to‘lovlar va imtiyozlarning kengayishi hamda ijtimoiy nizolarning birmuncha osonroq bartaraf etilishiga imkon berdi. Demak, bu bilan Keynsning kapitalistik iqtisodiyotining rivojlanishi va ish bilan bandlik muammolarining hal etilishiga qo‘shgan hissasi beqiyosligini baholamoy kerak.⁶

Klassik bandlik nazariyasi matabining namoyondalari quyidagilardir: D.Rikardo, Djon Styuart Mill, F. Edjdort, Sey, Al.Marshall va A.Pigu va boshqalardir. Klassiklar bozor tizimini o‘zi resurslardan to‘liq foydalanishga imkon yaratadi deb hisoblardilar. Albatta, ba‘zi hollarda (urush, siyosiy to‘ntarishlar, qurg‘oqchilik va

⁶ Абдурахмонов Қ.Х. Мехнат иқтисодиёти (назария ва амалиёт). Олий ўқув юртлари учун дарслик. Т: “Mehnat”, 2004 -672 b.

boshqalar) to‘liq bandlik amalga oshmay qolishi mumkin. Lekin bozor iqtisodiyoti ma‘lum bir vaqt ichida avtomatik ravishda oldingi normal holatiga qaytadi deb taxmin qilinar edi.

Klassik iqtisodiy nazariyada ish bilan to‘la bandlik bozor iqtisodiyotining normasi deb, eng yaxshi iqtisodiy siyosat deb esa, davlatning iqtisodiyotga aralashmasligi tushuniladi.

Sey qonuning mazmuni quyidagicha - tovar ishlab chiqarish jarayonida tushgan pul, ishlab chiqarilgan tovarlar qiymatiga tengdir. Ya‘ni qancha daromad qilinsa, shu qiymatga teng tovarlar sotiladi.

Lekin bu qonunning o‘ziga yarasha kamchiligi bor: daromad oluvchilar o‘z daromadlarining barchasini iste‘molga ishlatishlari amri maholdir, ular daromadlarining ma‘lum qismini jamg‘aradilar. Natijada, bozorda taklif qilingan tovar va xizmatlarning barchasi talab qilina olmaydi. Ortib (sotilmay) qolgan tovarlar ishlab chiqarishni qisqarishi, ishsizlik va daromadlarni pasayishini keltirib chiqaradi.

Ammo klassiklar jamg‘arish talab bilan taklif o‘rtasidagi muvozanatni buzmaydi, balki uni yanada ham barqaror va mustahkam qilishga yordam beradi, deb ta’kidlaydilar. Chunki jamg‘arilgan mablag‘ ishlab chiqarishga investisiya qilinadi va u iqtisodiyotni taraqqiy ettiradi. Klassiklarni ta’kidlashicha jamg‘armalar oxir natijada shunaqa bir kuchga aylanadiki, ularni o‘z sotuvchilari va xaridorlari paydo bo‘ladi va bu sharoitda foiz stavkasi (investision mablag‘lardan foydalanganlik uchun to‘lov) katta ro‘l o‘ynay boshlaydi.

Keyns nazariysi «Buyuk depressiya» (1929-1933) yillaridan boshlab AQSH makroiqtisodiyotining asosiy nazariyasiga aylangan. Hozirgi davrdagi makroiqtisodiyot ham xuddi shu nazariyaning takomillashtirilishi asosida yaratilgan. SHuni aytish kerakki, Keyns nazariysi makroiqtisodiyotning hamma sohalari bilan bog‘liq, chunki ishchi kuchi makroiqtisodiyotning har bir sohasida ishlatiladi.

Keyns nazariyasini ko‘rib chiqishdan oldin biz ish bilan bandlikning klassik nazariyasini ko‘rib chiqamiz. «Buyuk depressiya» yillarigacha (XIX asr va XX asrning boshlarigacha bo‘lgan nazariyada - hozir bu nazariya klassik nazariya deyiladi), bozor iqtisodiyoti barcha resurslarni to‘la (samarali) ishlata oladi deb tushunilgan. Ba‘zi holatlar (urushlar, tabiiy ofat, qurg‘oqchilik, suv toshqinlari) to‘la ish bilan bandlikni izdan chiqaradi deb hisoblangan. Biroq keyinchalik bozor iqtisodiyotining tartibga soluvchi mexanizmlari bu iqtisodiy qiyinchiliklarni o‘z-o‘zidan (avtomatik) hal qiladi, deb tushunilgan.

Klassik nazariyaga amaliyotda ma’lum davrlarda sodir bo‘ladigan, uzoq vaqtga cho‘ziladigan ishsizlik va inflyasiyaning mavjudligi ziddir. Masalan, AQSHda 1924, 1927-yillarda ishlab chiqarishning ma’lum darajada pasayganligini klassik nazariya asoslab bera olsa-da, «Buyuk depressiya» yillaridagi ishlab chiqarishning pasayishi, chuqur inflyasiya va ishsizlikni esa nazariy asoslab bera olmaydi.

Klassik nazariyada ishsizlikning yo‘qligi isbotlansa-da amaliyotda esa mavjud bo‘lgan. «Buyuk depressiya» yillari esa ishsizlar yanada ko‘payib AQSHning ulkan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy muammosiga aylangan. Natijada iqtisodchilar klassik nazariyaning asosiy jihatlarini qattiq tanqid qila boshlaganlar 1936-yilda taniqli ingliz iqtisodchisi Jon Keyns kapitalizm iqtisodiyotiga yangi ish bilan bandlik nazariyasini yaratdi. U o‘zining «Pul, foiz va ish bilan bandlikning umumiy nazariysi» asarida klassik nazariyasini qattiq tanqid qilib, uning noto‘g‘ri jihatlarini isbotlashga urindi.

Shu bilan makroiqtisodiyotdagi ishchi kuchi, ishsizlik, ish bilan bandlik masalalariga javob topishda yangi tafakkur yaratdi. U hozirgi zamon ish bilan bandlik iqtisodiy nazariyasining birinchi ilmiy poydevorini yaratdi.

Ko‘p iqtisodchilar uning nazariyasini takomillashtirib hozirgi ish bilan bandlik iqtisodiy nazariyasini takomillashtirmoqdalar. Keyns nazariyasining eng qat‘iy jihat shuki, u bozor iqtisodiyotida ish bilan to‘la bandlikni ta‘minlovchi hech qanday avtomatik mexanizm yo‘qligini isbotladi. Makroko‘lamda iqtisodiyot muvozanatga

erishishi mumkin, lekin shunda ham ma‘lum salmoqda ishsizlik va inflyasiya saqlanib qolinishi ilmiy isbotlandi.

To‘la ish bilan bandlik qonuniy holat emas, balki tasodifdir, kapitalizm o‘z-o‘zidan tartibga tushib, gullab, yashnab ketavermaydi.

Iqtisodiyotdagi tebranishlar faqat urush, tabiiy ofat va shu kabi deformasiyalar bilangina bog‘liq emas. U tinchlik yillari ichki omillarning salbiy oqibatlaridan ham kelib chiqadi, deb ko‘rsatdi. Bu xulosaning to‘g‘riligini biz hozir rivojlanayotgan mustaqil davlatlarida ham, Sharqiy Evropa mamlakatlari misolida ham ko‘rib turibmiz. Ishsizlik va inflyasiyaning kelib chiqishi va ularning kuchayishi investisiya va jamg‘armalarga bevosita bog‘liq. Narxning oshishi va ish haqining pasayishi, boshqa salbiy iqtisodiy tendensiyalar tashqi salbiy omillar bilan birgalikda iqtisodiyotning beqarorlashtirilishiga olib keladi. Keyns nazariyasni Sey qonunini ma‘lum ma‘noda inkor etadi. Sey qonuni bo‘yicha tadbirkorlar faoliyati va xo‘jalik jamg‘arish planlarining foiz stavkasi mutanosiblashtiriladi. Haqiqatan, hozirgi kapitalizmning pul bozorida iqtisodiy mexanizmlar barqaror ishlaydi. Undan tashqari turli-tuman moliya institutlari foiz stavkasi haqidagi Sey qonunini birinchi qarashda to‘g‘riligini tasdiqlaydi, lekin Keyns nazariyasni klassiklarni (shu jumladan, Sey nazariyasini ham) inkor etadi. Keyschilar aytadilarki, agar tadbirkorlar jamg‘armalarni ko‘paytirsalar, firmalar investisiyalarini ko‘paytirishlari mumkin.

Keynsning ish bilan bandlik nazariyasi qanday mexanizmga asoslangan? - degan savol tug‘iladi. Bu savolga javob berish uchun eng avvalo quyidagi savolga javob berish zarur. Keynsning iqtisodiy nazariyasiga binoan hozirgi kapitalizmda ishlab chiqarish va ish bilan bandlikning bog‘liqligi qanday va u qanday aniqlanadi?

Ushbu savolga to‘g‘ri javobning mezoni bo‘lib quyidagi «nizom» hisoblanadi: tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish hajmi, ish bilan bandlik, hamda umumiyligi (yalpi) xarajatlar. Tadbirkorlar ishlab chiqarish potensialiga qarab foydali realizasiya qilinadigan mahsulot hajminigina ishlab chiqaradilar. Agar tadbirkorning tovar va

xizmatlarni sotadigan bozori bo‘lmasa, ishchi kuchi ham, asbob-uskunalar ham ishlatilmaydi, vaholanki, ular ishga to‘la yaroqli bo‘lishi mumkin.

Demak:

- 1) yalpi xarajatlar
- 2) jami ishlab chiqarish hajmi
- 3) ish bilan bandlik bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir.

Keyns nazariyasi xam 70-yillarning oxirlariga kelib, inqirozga uchray boshladи. Bu nazariyaga muvofiq, jami xarajatlarning o‘sishi ishlab chiqarish xajmining ko‘payishini, iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi va bu bilan ishsizlikning ortib borishi birmuncha pasaytiriladi va narxlarning ortishi sodir bo‘lmaydi.

Urushdan keyingi yillarda (to 70-yillarga qadar) kapitalistik mamlakatlarning rivojlanishi bu qoidalarni tasdiqladi — ishsizlik va inflyasiya kamdan-kam hollarda birga sodir buo‘ldi. Biroq, jahon iqtisodiy rivojlanishining borishi 70-yillarda yuqori inflyasiyasiga olib keldi, u rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy hayotining doimiy omiliga aylanib qoldi.⁷

Turli mamlakatlarda va turli vaqtarda iqtisodiy siyosatni, shu jumladan, ish bilan bandlik siyosatini ishlab chiqishda har xil nazariyalardan foydalanilgan. Biroq, 30-yillarda ruy bergen eng kuchli jahon inkdrozi davridan boshlab keynschilar nazariyasi ustun nazariya bo‘lib qoldi, deb aytish mumkin. U AQSH prezidenta F.Ruzvelt tomonidan mamlakatni chuqur tanglikdan olib chiqishda va ommaviy ishsizlikni bartaraf etish choralarini ko‘rishda foydalanildi.

Keyns nazariyasining qoidalari AQSHda 1946-yilgi ish bilan bandlik Qonunida, to‘lik, ish bilan bandlik va balansli rivojlanish to‘g‘risidagi 1978-yilgi Qonunda (Xemfri - Xoukins qonuni) o‘z ifodasini topdi.

⁷ Самуэльсон П. Экономика. Т.2. М.:1992, 343-б

www.sharqjurnali.uz

DOI: 10.5281/zenodo.15411926

Ish bilan bandlik to‘g‘risidagi 1946-yilgi Qonunda, xususan, bunday deyilgan: «Kongress federal hukumatning doimiy siyosati va mas‘uliyati barcha amaliy vositalardan... barcha layoqatli, ishlashni xohlaydigan va ish qidirayotgan barcha kishilarga ishga joylashish uchun tegishli imkon beradigan shart sharoitlarni yaratish va qo‘llab-kuvvatlash maqsadida foydalanishdan iboratdir, deb e’lon qiladi...»⁸.

Samuelson Qonunning ana shu qismini sitata qilib keltirar ekan, bunday deb yozgan: «Ish bilan bandlik to‘g‘risidagi 1946-yilgi Qonun mamlakatimizda joriy etilgan muhim yangilik hisoblanadi. U xukumat zimmasiga ish bilan bandlikni ta‘minlash uchun mas‘uliyat yukladi va anik, harakatlar uchun hukumatda va kongressda tegishli mexanizm yaratdi». Shuni ta‘kidlash muhimki, ish bilan bandlik to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunida bu masala o‘z aksini topgan bo‘lib, uni amaliy jihatdan mukammal holga keltirgan.⁹

Ish bilan bandlik ba’zi konsepsiyalari mavjud bo‘lib ular quyidagilaoni tashkil etadi:

1. Ish bilan bandlikning yangi mikroiqtisodiy nazariyasi mehnat bozorini ichki tomondan bir xil bo‘limgan va nihoyat darajada dinamik tarzda o‘zgaruvchan, harakatchan tizim deb hisoblaydigan yangi nazariyani aks ettiradi.

Dinamik yondashishni ishlab chikdsh, avvalo, Ch. Xolt, Ch. Perri, M. Feldsteynlarning tadqiqotlari bilan bog‘liq. Bu mualliflar ishsizlikdan, odatda, oila boquvchisi qisoblanmagan xotin-qizlar va yoshlar ko‘proq, jabrlanishini ko‘rsatib berdilar.

2. Muvozanat modellari, tozalanmaydigan bozorlar paradigmasi ish bilan bandlik yangi makroiqtisodiy nazariyasiga kiradi. Ushbu konsepsialar ishsizlikka uzoq, davom etadigan o‘zgarmas muvozanatsizlik fenomeni deb qarashni aks ettiradi. Bu

⁸ Самуэльсон П. Экономика. Т.2. М.:1992, 343-б

⁹ Абдурахмонов Қ.Х. Мехнат иқтисодиёти (назария ва амалиёт). Олий ўқув юртлари учун дарслик. Т: “Mehnat”, 2004 -672 b.

konsepsiyalarda ishsizlik ayrim xo‘jalik bozorlarining umumiy muvofiqlashtirilmaganligi bilan izohlanadi.

3. Shartnomaviy ish bilan bandlik nazariyasi 70-yillarning o‘rtasida paydo bo‘ldi. Deyarli bir vaqtida ushbu nazariyani D. Gordon, M. Beyli va K. Azariadislар oldinga surdilar. Mehnat bozoridagi sub‘ektlarning siklli xatti-harakatini ushbu sub‘ektlar o‘z iqtisodiy manfaatlari yo‘lida harakat qiladilar degan fundamental aksioma bilan kелиштирishga urinish shartnomaviy nazariyaning boshlang‘ich negizini tashkil etadi. Ushbu nazariya mualliflarining nuqtai nazaridan qaraganda, munosabatlarning shartnomaviy tabiatga ega ekanligi mehnat bozoridagi sub‘ektlarni, xatto ular yozma shartnoma tuzmagan takdirlarida ham o‘zaro bog‘laydi.

4. Institusional yo‘nalish. Mazkur yo‘nalish namoyandalari siyosat, mafkura, hukuq va psixologiyani mehnatga joriy qilish va ishga tushirishining iqtisodiy shart-sharoitlari va qonunlariga nisbatan hal qiluvchi omillar deb qaraydilar. Bu mualliflar makroiqtisodiy tahlildan chetlashadilar, mehnat bozori tabiatining ayrim tarmoqlarini, professional va demografik guruhlar dinamikasining hususiyatlari bilan izohlashga urinadilar. Xususan, Adam, Shreder, Leyn yangi klassiklarning qarashlarini rad etib, to‘lik, ish bilan bandlikni mehnat qilishni hohlaydigan har qanday kishi ish topishi, shu jumladan, to‘lik, ish kuniga ish topishi mumkin bo‘lgan holat deb ta’riflaydilar.

Fleksibiliyash konsepsiyalari axborotlashtirish va kompyuterlashtirish bilan bog‘lik, bo‘lgan texnologiya, texnika, ishlab chisharishdagi tub o‘zgarishlar davridagi boshqaruv innovasiyasi sifatida yuzaga kelgan. Ushbu konsepsiylar mehnatni tashkil etish shakllari xilma-xilligining doimiy oshib borishi, ish vaqtি moslashuvchan jadvallari va ishga yollashning yangi tizimlari (vaqtinchalik o‘zganing o‘rnida ishslash, bir qancha funksiyani bajarish) yoyilishini nazarda tutadi. Moslashuvchan tarzda ish bilan band etish siyosatining tabiat ko‘p jihatdan uning qo‘sishimcha ishchi kuchining muntazam ravishda jalb etishga zo‘r berish yoki asosan, mehnat jamoasi doimiy o‘zagining kasbiy harakatchanligini rivojlantirishga qarshi qaratilishi bilan belgilanadi.

Ish bilan bandlik ba’zi konsepsiyanining yuqorida keltirilgan qisqacha sharhi G‘arb mamlakatlarida ish bilan bandlik munosabatlarini tartibga solish borasida to‘plangan tajriba to‘g‘risida va ushbu tajribani O‘zbekistonda ko‘llanish mumkinligi haqida tasavvur beradi.¹⁰

Bandlik va uni tartibga solish nazariyasini tahlil qilishning uslubiy asoslari to‘g‘risida ko‘plab g‘arb vakillarning klassik, neoklassik, keynscha, institusional, monetaristik, neokonservativ g‘oyalari mavjud. Jumladan A. Smit¹¹, D. Rikkardo¹², J.B.Sey, K. Marks, E. Boem-Baverk, A. Pigu, J.B. Klark, A. Marshall¹³, J.M. Keyns¹⁴, J. Commons, V. Mitchell, T. Veblen, J.K. Galbrait, M. Fridman, P. Samuelson, L. Erxard¹⁵ va boshqa olimlar bandlik tushunchalarini shakllantirish bandlik muammosi masalalarni o‘rganish va va uni tartibga solishga katta hissa qo‘shgan.¹⁶

Postindustrial jamiyatni shakllantirish va ish bilan bandlik tarkibidagi o‘zgarishlar D.Bell, Dj.Gelbreyt, P.Draker, M.Kastels, F.Uebster kabi olimlar5ning asarlarida ochib berilgan. Axborot texnologiyalari ta‘sirida ish bilan bandlikni

¹⁰ Абдураҳмонов К.Х. Мехнат иқтисодиёти (назария ва амалиёт). Олий ўқув юртлари учун дарслик. Т: “Mehnat”, 2004 -672 b.

¹¹ Hayes, Mark. The Economics of Keynes: A New Guide to the General Theory. — Edward Elgar Publishing, 2008. — 257 p. — ISBN 9781781008683.

¹² Петти В., Смит А., Рикардо В., Кейнс Дж., Кейнс М., Фримен М. Классика экономической мысли. М.: ЭКСМО-ПРЕСС. 2000. –С.115.

¹³ Маршалл А. Основы экономической науки. М.: Эксмо, 2007. С. 535

¹⁴ Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. Избранное. — М.: Эксмо, 2007. — 960 с. — ISBN 978-5-699-20989-7

¹⁵ Hayes, Mark. The Economics of Keynes: A New Guide to the General Theory. — Edward Elgar Publishing, 2008. — 257 p. — ISBN 9781781008683.

¹⁶ Эренберг Р.Дж. Современная экономика труда: теория и государственная политика / Р.Дж. Эренберг, Р.С. Смит. – М.: Изд-во МГУ, 1996. – 800 с. Smith A. The Wealth of Nations. – Aegitas, 2016. – 685 p.; Say J.B. Jean-Baptiste Say and Political Economy. – Taylor & Francis, 2016. – 280 p.; Keynes J.M. The general theory of employment, interest, and money. – Springer, 2018. – 404 p.; Marshall A. Industry and trade. – Vani Prakashan, 2015. – 556 p.; Мизес Л. Человеческая деятельность: трактат по экономической теории. – Litres, 2017. – 770 с.; Pigou A.C. Theory of unemployment. – Routledge, 2013. – 348 p.; Hayek F.A. The constitution of liberty: The definitive edition. – Routledge, 2013. – Т. 17. – 596 p.; Friedman M. Theory of the consumption function. – Princeton university press, 2018. – 258 p.

rivojlanishi masalalari M.Falk, M.Vorter, M.Pianta, X.Shmits, D.Vest6 va boshqa xorijiy olimlarning asarlarida ko‘rib chiqilgan.¹⁷

MDH mamlakatlari iqtisodchilari orasida ham bu borada ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xusan, A.N. Ananov, E.V. Balaskiy, B.D. Breev, V.S. Bulanov, G.K. Vechkanov, N.A. Volgin, B.M. Genkin, S.A. Dyatlov, I.E. Zaslavskiy, V.G. Kostakov, L.A. Kostin, A.E. Kotlyar, I.S. Maslova, A.A. Nikiforova, A.I. Rofe, E.I. Ruzavina, E.R. Saruxanov, A.S. Semenov, G.E. Slezinger, . Kolupaeva V.A.,¹⁸ L.S. Chijova¹⁹, Nikiforova A.A²⁰, Zayseva, K.V.²¹ va boshqalar.

O‘zbekistonlik olimlarning ham ilmiy ishlarida bandlik muammolari, bandlikni shakllanishi masalalari borasida ilmiy izlanish olib borgan olimlardan AbdurahmonovQ²², XolmuminovIII²³, AbduraxmonovaG²⁴ Maksakova L.P.²⁵, Muminov N²⁶, Artikova D.A.²⁷, Zokirova N.K.²⁸, Zaxidov G·.E., Asqarova M.T.²⁹ R.A.

¹⁷ Falk M., Biagi F. The impact of ICT and e-commerce on employment in Europe //Journal of Policy Modeling. – 2017. – V. 39. – №1. – P. 1-18; Balsmeier, B., Woerter, M. Is this time different? How digitalization influences job creation and destruction. Research Policy, 48(8), 2020; Pianta M. Technology and Work: Key Stylized Facts for the Digital Age //Handbook of Labor, Human Resources and Population Economics. – 2020. – P. 1-17.; Schmitz H. Technology and employment practices in developing countries. – Routledge, 2018. – 266 p.; West, D. M. The future of work: Robots, AI, and automation. The future of work: Robots, AI, and automation. 2018. – 205 p

¹⁸ Колупаева В.А., Раковская В.С. Экономика труда: учебное пособие. –Томск: Изд-во Томского политехнического университета, 2011. – С. 68. Поступила 28.03.2012 г. Hayes, Mark. The Economics of Keynes: A New Guide to the General Theory

¹⁹ Е.В. Зверева, Л.К. Шайкина // Научно-теоретический журнал «Социальные и гуманитарные науки на Дальнем Востоке». Т. XVII. Вып. 1, 2020. – С. 225-230.

²⁰ Никифорова А.А. Рынок труда: занятость и безра ботица. – М.: “Международные отношения”. 1991.

²¹ Зайцева, К.В. Управление трудовой занятостью в условиях смешанной экономики: монография. – Донецк: МЧП «ВИК», 2003. – 294 с.

²² Абдурудмонов КД. Мехнат иқтисодиёти (назария ва амалиёт). Олий ўкув юртлари учун дарслик. Т.: «Mehnat», 2004.—672 б

²³ Холмүминов III Р. Мехнат бозори иқтисодиёти (ўкув кўлланма) - Т.: ТДИУ, 2004 - 144 бет.

²⁴ Абдурахмонова Г. Мехнат иқтисодиёти. Ўқув кўлланма. –Т.: “Инновацион ривожланиш” нашриёт-матбаа уйи, 2020.

²⁵ Максакова Л.П. Проблемы обеспечения занятости трудовых ресурсов Республики Узбекистан в переходный период к рынку. Автореферат дисс. соиск. уч. степен. док. экон. наук. - Т.: 1995. с. 20.

²⁶ Муминов Нозим Гаффарович. Пути эффективного использования трудовых ресурсов и повышения занятости населения в регионах Республики Узбекистан// Современные технологии управления. ISSN 2226-9339. —№ 3 (96). Номер статьи: 9606. Дата публикации: 2021

²⁷ Артыкова Д.А. Формирование занятости населения в Республике Узбекистан. – Т.: Фан, 2005. - 56-59 с

²⁸ Абдурахмонов К.Х., Зокирова Н.К. Мехнат бозори назариясига янгича ёндашувлар. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. Т.: № 1, 2011 йил.- 1 Б.

²⁹ Захидов Г.Э., Асқарова М.Т., ва б. Макроиктисодиёт. Дарслик. – Т.: –2019. – 309 б.

Ubaydullayeva, Q.X. Abdurahmonov, S.S. G’ulomov, B.X. Umurzakov, Z.Ya. Xudoyberdiyev, B.A. Islamov, D.N. Raximova, N.X. Raximova, R.R. Xasanov, N.U. Arabov, G.K. Abduraxmonova B.A. Maxkamov, X.X. Mamadaliyeva³⁰ ko‘rsatish mumkin. Ular o‘z ilmiy izlanishlarida bandlik hamda turizm sohasini rivojlantirishning nazariy-metodologik muammolarini tadqiq etganlar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi fikrlardan shuni ko‘rsatadiki barcha davrlarda bandlik iqtisodiy o‘sishning eng asosiy ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lganligi mumtoz iqtisodiy ta’limotda o‘z aksini topgan. Klassik iqtisodiy maktab vakillari tomonidan berilgam ta’rif va g‘oyalar ishsizlik, bandlik kabi tushunchalarni fanda va ilmda alohida nazariy kategoriya sifatida namoyon bo‘lishiga asos bo‘ldi. Shu bilan bir qarorda bandlik muammolar hozirgi davrdagi eng dolzarb muammolar biri bo‘lib aholi farovonlogini ta’minalash uchun avvalo bandlik muammoosini hal etish lozim.

Xulosa qilib aytganda, ish bilan bandlik masalasi zamonaviy jamiyatda strategik ahamiyat kasb etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy hodisa bo‘lib, uni faqat iqtisodiy mezonlar asosida baholash yetarli emas. Insonning ijtimoiy hayotdagi o‘rni, ehtiyojlari va mehnatga bo‘lgan talabini inobatga olgan holda shakllantirilgan bandlik siyosati jamiyat barqarorligining muhim omilidir. Ish bilan bandlik konsepsiyasining har bir bosqichda yangicha yondashuv asosida ishlab chiqilishi zarur. Bunda davlatning roli, ijtimoiy bozor iqtisodiyoti tamoyillari va aholining ehtiyojlariga moslashtirilgan mexanizmlarni joriy etish alohida e’tiborni talab qiladi. Shuningdek, bandlikni

³⁰ Абдурахмонов К.Х. Мехнат иқтисодиёти: назария ва амалиёт. Дарслар. Қайта ишланган ва тўлдирилган 3-нашри. Т.: “FAN”, 2019. – 592 б.; Убайдуллаева Р.А., Ата-Мирзаев О.Б., Умарова Н.О. Ўзбекистон демографик жараёнлари ва аҳоли бандлиги (илмий ўкув кўлланма). – Т.: Университет, 2006. – 165 б.;

Abdurakhmanov K.H. Zokirova N.K., Islamov B., Hiwatari M. Systemic transformation and sustainable human development: the Case of Uzbekistan. Jakarta: Gunadarma Publisher, – 2016. – p. 230; Умурзаков Б.Х. ва б. Мехнат ресурслари шаклланиши ва тақсимланишининг худудий хусусиятлари. Монография. – Т.: «LESSON PRESS» 2017. – 188 б.; Худойбердиев З.Я. ва б. Таъдиркорлик ва ишга жойлаштириш технологияси. Ўкув кўлланма.

«ILMIZIYO» 2016; Абдурахмонова Г.К. Аҳолини муносаб мөхнат тамоиллари асосида иш билан таъминлаш. Монография. – Т.: IQTISODIYOT, 2017. – 131 б.

ta’minlashda inson kapitali, ta’lim, kasb-hunar va zamonaviy ish o‘rnlari yaratish kabi omillar hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдураҳмонов Қ.Х. Мехнат иқтисодиёти (назария ва амалиёт). Олий ўкув юртлари учун дарслик. Т: “Mehnat”, 2004 -672 b.
2. Hayes, Mark. The Economics of Keynes: A New Guide to the General Theory. — Edward Elgar Publishing, 2008. — 257 p. — ISBN 9781781008683
3. Петти В., Смит А., Рикардо В., Кейнс Дж., Кейнс М., Фримен М. Классика экономической мысли. М.: ЭКСМО-ПРЕСС. 2000. —С.115.
4. Холмўминов Ш Р. Мехнат бозори иқтисодиёти (ўкув қўлланма) - Т.: ТДИУ, 2004 - 144 бет.